Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

NAMANGAN VILOYATIDA NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARINING RIVOJLANISHI (MAHORAT IT-MED XUSUSIY MAKTABI MISOLIDA)

Sadoqatxon G'ulomaxmadovna Nigmatova*
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ nigmatovasadoqat1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Mahorat IT-MED xususiy maktabi, undagi yaratilgan zamonaviy ta'lim dasturlari, xalqaro andozadagi metodikalar -ingliz, koryes, turk tillari, matematika, mantiqiy-tanqidiy fikrlash, mental arifmetikasi, IT modellashtirish, grafik dizayni, mahurat onalar maktabi, o'quv mashg'ulotlari, IELTS, CEFR, milliy sertifikatlaridan yuqori ballarni olishga o'quvchilarni tayyorlash, xalqaro SAT sertifikati uchun ham tayyorlov faoliyati hamda o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, Dilbaroy xususiy klinikasi, sport to'garaklari va dars mashg'ulotlaridagi A, B, C guruhlarida ishlash jarayonlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

Mahorat IT-MED, ingliz, koryes, turk tillari, matematika fanidagi yo'nalishlar, IT modellashtirish, grafik dizayni, kasb-hunarga tayyorlov, uy hamshiraligi, Dilbaroy xususiy klinikasi, IELTS, CEFR, SAT, ta'lim monitoring nazorati, ta'lim sifati, xususiy maktab.

DOI: 10.5281/zenodo.21743696

Kirish.

Bugungi globallashuv davrida zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan mutaxasislarni jamiyatimizga yetkazib berishda nodavlat ta'lim muassasalarining o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Xalqaro miqiyosdagi sertifikatlarga ega bo'lish orqali shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zamin bo'lmoqda. Sog'lom raqobat muhitini shakllantirish uchun an'anaviy ta'lim xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va ommabop ta'lim olishning muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish bozorini jadal rivojlantirish; ilg'or xalqaro tajribalarni inobatga olib, o'qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish asosida ta'lim sohasidagi samaradorlik va natijaviylikni oshirish nodavlat ta'lim muassasalarining sifatini xalqaro miqiyosdagi ta'lim tuzilmasidagi xususiy o'quv markazlar darajasiga olib chiqishdir.

Xususan, Namangan viloyatida ham zamonaviy ta'lim dasturiga asoslangan fanlarni, sun'iy intelekt, robotexnika va xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan -kunga ortib bormoqda. Viloyatdagi xususiy maktablar, o'quv markazlar ushbu ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilarni IELTS xalqaro ingliz tili imtihonlariga, shuningdek, CEFR milliy sertifikatlarga va SAT imtihonlariga, robotexnika, sun'iy intelekt yordamida murakkab programmalarni yaratishga tayyorlov uchun ixtisoslashgan. Ushbu maqolada xususiy sektorning ta'lim faoliyati chuqur tahlil qilinib, uning samaradorligi va rivojlanish istiqbollari baholanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqot ishida asosan tarixiy-qiyosiy tahlil, "Ta'lim to'g'risida"gi (1992, 1997, 2020-yillar) qonun, statistik ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Namangan viloyati statistika boshqarmasining yillik hisobotlari va viloyat xalq ta'limi boshqarmasining arxiv ma'lumotlari statistik tahlil uchun manba bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik guruhlash va muayyan vaziyatni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, hozirgi kunda xususiy maktabda faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlar bilan suhbat jarayonlari o‘tkazildi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, huquqiy-me’yoriy hujjatlar va statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Metadologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [2] hamda 2019-yil 24-dekabrdagi “Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1028-son qarori kabi me’yoriy hujjatlar ham tahlil qilindi [3].

O‘zbekistonda nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatining huquqiy asoslari bir qator qonunchilik hujjatlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020) nodavlat ta’lim tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilab beradi. Qonunda nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatining asosiy qoidalari, ularning huquq va majburiyatlari, davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari belgilangan [4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 26-maydagi PF-79-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlari xususiy maktablarning rivojlanishiga zamin yaratdi [5].

Natija va muhokama Mahorat IT-MED xususiy maktabi Namangan shahrida ochilgan dastlabki xususiy maktablardani biri xisoblanadi. 2018-yili ushbu maktab 250 nafar o‘quvchi, 40 nafar pedagog xodimi bilan Namangan shahrining Go‘zal mfy Q.Mamarasulov ko‘chasi 16-uyda ochilgan. Dastlab kimyo, biologiya fanlariga ixtisoslashgan holda faoliyat boshlagan. 2019-2020-yillarda maktabning yuqori sinflarida tibbiyot sohasiga chuqurlashtirilgan fanlar bilan birgalikda, IELTS, CEFR hamda milliy sertifikatlariga tayyorlash darslari, boshlang‘ich sinflarida esa, mantiqiy-tanqidiy fikrlash, mental arifmetikasi, ingliz tili fanlari bo‘yicha Prezident maktablariga tayyorlov mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yildi. 2020-2021-yillardan esa, IT modellashtirishda bu yo‘nalishda qiz bolalar uchun zamonaviy dizaynerlik hamda tikuvchilikka, o‘g‘il bolalar uchun esa, grafik dizayni, dasturlash, web dizayni kabi sohalarga ixtisoslashgan dars mashg‘ulotlari, uy hamshiralik kurslari ham o‘tilib, shahardagi “Dilbaroy” xususiy klinikasida amaliyot o‘tash faoliyati ham yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatimizda olib borilgan ta’lim sohasidagi islohotlar davrida nodavlat ta’lim sektorlariga imtiyoz va imkoniyatlar, ularni soliqlardan ma’lum muddatga ozod etib, imtiyozli kreditlar berish borasidagi Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan chiqarilgan bir qator farmonlar nodavlat ta’lim muassasalarning shakllanib rivojlanishiga, maktabning chuqurlashtirilgan fanlar bo‘yicha dasrlarni tashkillanishiga, tarmoqlarini ko‘payishiga asos bo‘ldi.. Hozirgi kunda maktabda o‘zbek va rus sinflariga ajratilgan holda aniq, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar, IT va horijiy tillar bo‘yicha mutaxasisliklariga ixtisoslashgan holda 1-11 sinflarda dars mashg‘ulotlari olib boriladi. Joriy yilda o‘quvchilar soni 350 nafar, o‘qituvchilar soni 60 nafardan oshadi. Bu salohiyatga erishishda, albatta, ko‘p yillik tajribaga asoslangan pedagoglar jamoasi, o‘zaro hamkorlik, ustoz-shogird an’anasining takomillashuvi, rahbar va xodimlar o‘rtasida do‘stona, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida esa o‘zaro yordam ko‘nikmasi shakillanganligi sabab bo‘lmoqda. Maktabni zamonaviy talablar asosidagi darslarni tashkillash, o‘quvchilarni har tamonlama yetuk kadr bo‘lib yetishishlarida xalqaro miqiyosdagi mutaxasislarni tayyorlash maqsadida o‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdan boshlab qiziqishlarini aniqlash, ularni zamonaviy kasblar bilan tanishtirib borish trenninglari tashkil qilingan. Shuning uchun ham maktabda yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar boshqa ta’lim muassasalariga nisbatan ta’lim oluvchilarga qulay qilib yaratilib, bolalarni asosiy dars mashg‘ulotlaridan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlarga, sport to‘garaklariga muntazam ravishda jalb qilib kelinmoqda. Maktab o‘quvchilariga o‘quv binosida ichki va tashqi sport zali, informatika-IT, robotexnika, texnalogiya, tikuvchilik, uy hamshiraligi va laboratoriya xonalari mavjud bo‘lib, qo‘shimcha mashg‘ulotlar olib boriladi. Dars mashg‘ulotlari asosan ertalabgi soat 8:00 dan kechki 17:00 gacha olib boriladi. Asosiy dars mashg‘ulotlari tugagandan so‘ng sport to‘garaklari boshlanadi. Kurash, fudbol, badiiy gimnastika, volleybol kabi sport to‘garaklari ham o‘z faoliyatini olib bormoqda. Hozirgi globallashuv davrida bola nafaqat aqliy yoki ruhiy tamonlama balki jismoniy tamonlama ham yetuk va sog‘lom bo‘lsagina o‘ziga ishongan, kuchli, dunyoqarashi keng bo‘lgan avlod shakllanishida sport va musiqaning o‘rni alohida xususiyatga ega bo‘lmoqda.[6].

Milliy va xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritgan o‘quvchilar uchun yillik chegirmalar, oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun o‘z mutaxasislik fanlaridan to‘liq serifikatlarini olib bo‘lgan o‘quvchilarga esa oylik to‘lov to‘lamasdan o‘qish imkoniyati beriladi. 9-11-sinflar kesimida milliy sertifikatga tayyorlov guruhlari ijtimoiy, aniq, tabiiy hamda xorijiy tilliar bo‘yicha tayyorlanadi. Agar shu yo‘nalishlarda o‘quvchi muddatidan oldin 189 ballni yig‘ib, talaba bo‘lish imkoniyatini qo‘lga kiritsa yoki IELTS, SAT sertifikatlarini olishda yuqori ballarni olsa barcha to‘lovlardan ozod qilinishi quyi sinfdagi o‘quvchilar uchun bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqlarini oshishida motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi. 2025-yili Nabiyeva Omina IELTS dan 8 ballni qo‘lga kiritib, ushbu imkoniyatdan foydalana oldi. Shuningdek, haftalik, imtihonlar joriy qilingan bo‘lib, bu imtihonlar orqali o‘quvchining A- o‘zlashtirish eng yaxshi, B-yaxshi, C-yomon guruhlar kesimida natijalar chiqariladi. Hamda 7-11-sinflar o‘rtasida ushbu tabaqalashtirilgan guruhlarga o‘tish bir paytning o‘zida ham rag‘bat, ham jarima vazifasini o‘taydi.[7]. Qolaversa, bitiruvchilar “Dilbaroy” xususiy klinikasida amaliyot o‘tab, uy xamshiraligi sertifikatini qo‘lga kiritishlari ham ahamiyatli tomonlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy o‘quv xonalarda dars mashg‘ulotlarini kichik guruhlarda ishlash uchun shart -sharoitlar yaratib berilgan. Har bir xorijiy tillariga, IT va laboratoriyaga ixtisoslashtirilgan xonalar proyektorlar, audio-video materiallar bilan jihozlangan. O‘quvchining tartib-intizomiga, vazifalarni vaqtida bajarishiga, dars mashg‘ulotlariga kech qolmasligiga, o‘quv ishlari bo‘yicha monitoring tomonidan tashkil qilinadigan imtihonlarga muntazam qatnashishiga qarab, o‘quvchilarga va pedagog xodimlarga rag‘batlantirish ballari beriladi. Haftaning har payshanba kunlari “mahorat onalar maktabi” trenninggi tashkil qilinib, farzand tarbiyasida onaning ahamiyati, lider bolalarni jamiyatga yetkazib berishda oilaning o‘rni, erkin fikrlaydigan zamonaviy kasb-hunarlarga ega bo‘lgan yetuk mutaxasislarni tayyorlashda ota-onaning o‘rni haqida suhbatlar o‘tkazilib, ochiq darslar tashkil qilinadi. Yiliga ikki marotaba ota-onalar yig‘ilishi o‘tkazilib hisobotlar beriladi.[8].

Xulosa. Mahorat IT-MED xususiy maktabi Namangan shahridagi nodavlat ta’lim mussasalarida ingliz tili bo‘yicha IELTS, CEFR, SAT sertifikatlariga, aniq, ijtimoiy, tabiiy fanlar bo‘yicha esa, milliy sertifikatlarga o‘quvchilarni tayyorlovchi yetakchi maktablardan biri hisoblanadi. Maktabning yuqori malakali o‘qituvchilar tarkibi, zamonaviy o‘quv dasturlari, samarali metodologiyalari va qulay o‘quv muhiti o‘quvchilarning yuqori natijalarga erishishini ta’minlamoqda. Maqola davomida tahlil qilingan ma’lumotlar o‘quv markazining ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardoshligini mustahkamlash va kengroq auditoriyani mustahkamlab olish uchun katta salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Keyingi o‘n yillikda maktab viloyat bo‘ylab o‘z filiallarini, xususiy bog‘chasini hamda oliygohlari faoliyatini tashkillashtirishni ham rejalashtirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 1-bet https://lex.uz/docs/-3343077

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2-bet. https://kknews.uz/oz/cs_docs_laws/

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.12.2019 yildagi “Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1028-son qarori. 2-bet. https://lex.uz/uz/docs/-4664567

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son. 3-bet. https://lex.uz/docs/-5013007

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 26-maydagi PF-79-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni. 4-bet.Lex.uz.https://lex.uz.doc.

6. Samatova N. Mahorat IT-MED xususiy maktabi psixologi, ish boshqaruvchisi. Namangan viloyati, Davlat tumani, 1-kichik daha 64-A uy, 14-xonadonda istiqomat qiladi.

7. Mamatxanov T. maktab ta’sischisi. Namangan viloyati, Namangan shahri, Taxtako‘prik ko‘chasi 36-uyda istiqomat qiladi.

8. Samatova N. Mahorat IT-MED xususiy maktabi psixologi, ish boshqaruvchisi. Namangan viloyati, Davlat tumani, 1-kichik daha 64-A uy, 14-xonadonda istiqomat qiladi.